



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI SANOAT STATISTIKA BO'LIMI



TOSHKENT SHAHRIDA 2020-YIL YANVAR OYI UCHUN SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 5 124,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 105,0% ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat hajmi indeksi 105,3 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash 97,5 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 112,5 % hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 95,7 % ni tashkil qildi.

Sanoat mahsuloti hajmi
5 124,2 mlrd. so'mni,
sanoat ishlab chiqarish
indeksi 105,0 % ni tashkil etdi.


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish
hajmi 1 425,4 mlrd.so'mni va
o'sish sur'ati 109,0 % tashkil etdi.

Iste'mol tovarlarining jami sanoat
ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
27,8% ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik
biznesning ulushi – 57,5 %

2020-YILNING YANVAR OYIDA ASOSIY IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA SANOAT ISHLAB CHIQARISH TARKIBI


Umumiy hajmdagi ulushi




**Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash**
(sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish indeksi - 97,5 %)



Ishlab chiqaradigan sanoat
(sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish indeksi - 105,3 %)



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**
(sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish indeksi - 112,5 %)



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya
tizimi, chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish**
(sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish indeksi - 95,7%)

TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, joriy yilning yanvar oyida Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 1096,6 mld. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotidagi ulushi 21,4 % ni tashkil etgan.



Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish indeksi 83,9 % va boshqa tog‘-kon sanoati faoliyati esa 96,0 % tashkil etdi.



TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI

TABIYY GAZ VA XOM NEFT QAZIB OLİSH



2019-yil yanvar oyida
899,5 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

2019-yil yanvarga nisbatan
83,9 % da

2020-yil yanvar oyida
1085,8 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

BOSHQA TOG‘-KON SANOATI



2019-yil yanvar oyida
8,1 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan


2019-yil yanvarga nisbatan
96,0 % da

2020-yil yanvar oyida
9,6 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARISH (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqarish sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5124,2 mld. soʻmni va oʻtgan yilga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 105,0 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarish sanoati tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ulushi – 5,2 % ni, oʻrta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish – 23,2 %, oʻrta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish – 34,0 %, quyi texnologiyali ishlab chiqarish esa – 37,6 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʼyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



- Yuqori texnologiyali
- O'rta-yuqori texnologiyali
- O'rta -quyi texnologiyali
- Quyi texnologiyali

Oʻz navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan kiyim ishlab chiqarish sohasi 3,1 % ga, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish 24,5 % ga oshdi.

Shu bilan bir qatorda, plastmas va rezina mahsulotlarini ishlab chiqarish 0,8 % ga, boshqa tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarish 11,7 % ga kamaydi.

ISHLAB CHIQARISH (QAYTA ISHLASH) SANOATI

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI



2019-yil yanvarda
284,7 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



2019-yil yanvarga nisbatan
98,1 % da

2020-yil yanvarda
325,2 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

ICHIMLIKLER ISHLAB CHIQARISH



2019-yil yanvarda
134,7 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



2019-yil yanvarga nisbatan
115,1 % da

2020-yil yanvarda
211,3 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARISH (QAYTA ISHLASH) SANOATI

TEKSTIL MAHSULOTLARI



2019-yil yanvarda
222,4 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



2019-yil yanvarga
nisbatan 113,2 % da

2020-yil yanvarda
324,5 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI



2019-yil yanvarda
76,3 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



2019-yil yanvarga nisbatan
103,3 % da

2020-yil yanvarda
84,3 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

AVTOTRANSSPORT VOSITALARI, TREYLERLAR VA YARIM TIRKAMALAR



2019-yil yanvarda
21,3 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan




2019-yil yanvarga nisbatan
104,4 % da

2020-yil yanvarda
31,4 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



ELEKTR, GAZ, BUG' BILAN TA'MINLASH VA HAVONI KONDITSIYALASH

2020-yil yanvar oyida korxonalar tomonidan elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari sohasi bo'yicha 502,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi - 112,5 % ni tashkil etdi.



Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari

Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash



Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari sohasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 14,5 % ga ko'paydi.

Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash sohasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 2,5 % ga o'sdi.

SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIYA QILISH.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 72,4 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 1,4 % ni) tashkil etganligi kuzatildi.

Bunda 2020-yil yanvar oyida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar indeksi 95,7 % tashkil etdi.

ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar oyida Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini tomonidan 1 425,4 mld. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 % ni tashkil etdi. Umumiy sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarishda iste'mol tovarlarining ulushi 27,8 %.

2020-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati, % da




ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 411,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 28,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 925,6 mlrd.so‘m, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 64,9 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 88,1 mlrd.so‘m hisoblanib jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 6,2 % tashkil etdi.

2020-YILNING YANVAR OYIDA TUMANLARNING JAMI ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % da

Toshkent shahrida iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng ko'p ulush Bektemir (shahar iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida, 14,7%), Chilonzor (12,0 %), Yashnobod (11,8%), Mirzo Ulug'bek (9,5 %) va Shayxontohur (9,5%) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Shu bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (5,5%), Uchtepa (5,9 %) va Yunusobod (6,0 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.





2020-YILNING YANVAR OYIDA HUDUDLARDA ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH HAJMINING O'SISH SUR'ATI, % DA



Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish sur'atlari Bektemir (131,5 %), Mirobod (120,9 %) va Shayxontohur tumanlarida (113,4 %) kuzatilgan.

Eng kam o'sish sur'atlari esa Yunusobod (100,1 %), Olmazor (100,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.




HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHDAGI O'RNI

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Yashnabod (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 27,9 % ulushini), Mirzo Ulug'bek (11,0 %), Bektemir (8,6 %), Mirobod (8,1 %), Olmazor (7,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Uchtepa (4,8 %), Chilonzor (5,3 %), Sergeli (6,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2020-YILNING YANVAR OYIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % da





SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 57,5 % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Uchtepa (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 92,2 %), Yunusobod (91,8 %), Chilonzor (91,2) va Olmazor (85,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Yashnobod (28,2 %), Mirzo Ulug'bek (35,0 %) va Mirobod (41,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDAGI ULUSHI, % DA

